

MTTda rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish vazifalari va maqsadlari**Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani****12-DMTT direktor o'rinbosari****Muhammadqulova Ma'mura G'ulomjon qizi**

Annotatsiya; Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti guruh xonasida rivojlanish markazlar dolzarbligi, ahamiyati hamda, ta'limiy vosita ekanligi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: rivojlanish markazlar maktabgacha ta'lim, metod, usul bolalar, atrof muhit, estetik tarbiya, ta'lim, bilim, mashg'ulot, ahloq, aqliy,

Bolalarga yo'naltirilgan guruhda puxta o'ylangan va xavfsiz tashkil etilgan rivojlanish muhiti eng muhim rol o'ynaydi, bu pedagoglarga davlat o'quv dasturining maqsad va vazifalarini amalga oshirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkonini beradi. Guruh xonasini rivojlanish markazlari deb ataladigan kichik-kichik joylarga ajratish tavsiya etiladi. MTT pedagoglariga jadvalda guruhdagi rivojlanish markazlarining minimal soni ko'rsatilganligini tushunishlari tavsiya etiladi; hududning va MTTdagi ta'lim va tarbiya jarayoni mazmunining imkoniyatlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda guruhdagi boshqa rivojlanish markazlari tashkil etilishi mumkin. Turli guruhlarda markazlar to'plami har xil bo'lishi mumkin, ammo davlat o'quv dasturi guruhdagi beshta asosiy rivojlanish markazlarini tavsiya qiladi: fan va tabiat; til va nutq; syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish; san'at; qurish, konstruksiyalash va matematika. Guruhda boshqa rivojlanish markazlarini ham tashkil etish mumkin, ularni tashkil etish bolalarning manfaatlariga, guruhning bo'sh makoniga va maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy-texnik imkoniyatlariga bog'liq. Bunday markazlar vaqtinchalik yoki faqat bolalar faoliyatining maxsus turlari (qum va suv markazi; pazandachilik markazi; musiqa markazi) uchun tashkil etilishi mumkin. Ta'lim muhitini yaratishda pedagoglar bolalar faol bo'lishi mumkin bo'lgan joylar mavjudligini ta'minlashi kerak. Rivojlanish uchun mos jismoniy faollik uchun joylar. Bolalar jismoniy faollik orqali yanada samaraliroq o'rganadilar va kun davomida yuqori darajadagi jismoniy faollik, turfa xillik va stimulning o'zgarishiga ehtiyoj sezadilar. Bolalar faoliyatining muayyan amaliy turlari uchun imkoniyat. Yosh bolalar suvda o'ynash, loydan pirog yasash, yog'ochdan narsalar yasash, qo'g'irchoqlarni yotqizish va hokazo kabi amaliy mashg'ulotlarga muhtoj. Shuningdek, ularga syujetli-rolli o'yin, rasm chizish, rasmga olish, tildan foydalanish va qurilish bloklari kabi yangi tajribalarni mavjud aqliy tuzilmalarga integratsiya qilish va amalda qo'llash uchun turli usullar kerak. O'zgarish va xilma-xillik. Bolalar doimo o'zlari qiziqqan narsalarni izlaydilar: manzara, tekstura, ranglar, ijtimoiy guruhlar, faoliyat,

muhit, tovushlar va hidlar. MTTda qancha ko'p vaqt sarflasa, ularga ko'proq xilmaxillik va rag'batlantirish kerak bo'ladi. O'quv muhiti xavfsiz bo'lishi kerak. Bolalar xavfsizligi pedagogning asosiy mas'uliyati bo'lib, ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish va nazorat qilishni talab qiladi. Guruh xonasining maydoni qanday rejalashtirilganligi, rivojlanish markazlari qanday joylashganligi pedagogning bolalar salomatligi va xavfsizligini qanday ta'minlashi va ularning ta'limini yaxshilashiga ta'sir qiladi. Pedagog barcha bolalarni uyda ham, tashqarida ham ko'rishi va xona jihozlarining "ko'rinmas joylar" yaratadigan tarzda joylashtirilmasligini ta'minlashi kerak. Davlat o'quv dasturini amalga oshirish SanPiNda mustahkamlangan xavfsizlik qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Tarbiya masalalari ta'lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg'ulotlarda ta'lim berish orqali, ijodiy va qoidali o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, ularning o'z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali, o'z-o'ziga xizmat qilish, sayrlar o'tkazish gigienik tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar bog'chasidagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Bolalar pedagogik jarayonida ta'lim muxim ahamiyat kasb etadi va u kundalik xayotda, o'yinda, mehnatda, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarakatrofdagi xayot va tabiat bilan tanishish, nutqni o'stirish va savod o'rgagish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka va ko'nikmalar sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar bolalar bog'chasi dasturida belgilab berilgan bo'lib, u bolalarning umumiy rivojlanishida va ularni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda ta'lim berish didaktika printsiplari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma'lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'ladi. Dasturda har bir yosh guruhida hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni va har bir mashg'ulot qancha davom etishi belgilab qo'yilgan. Tarbiyachi mana shunta asoslanib, o'zining xaftalik mashg'ulotlar jadvalini tuzib oladi, bu ta'limning hamma bo'limlari bo'yicha belgilangan ta'limtarbiya ishlarini to'g'ri taqsimlash va bir xilda amalga oshirishga imkon yaratadi. Mashg'ulotlar jadvalini tuzishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ilm yo'li" variativ dastur, Toshkent 2019
2. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 05.04.2018 y. PQ-3651.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni O'RQ-637-coh 23.09.2020. 8- moddasi

4. “Maktabgacha ta’limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” Xalq so‘zi gazetasi 30.09.2020
5. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.
6. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. Toshkent 2018 yil (Maktabgacha ta’lim vazirligi)
7. Mamirova Z.U., Niyozova G.B. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat mashg,ulotlarida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish” Science and Education" Scientific Journal January 2021 / Volume 2 Issue 1
8. .Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. T.: Tafakkur bo,stoni, 2013
9. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. “Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi”. “Cho‘lpon”, T.:2010y.